

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(51 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(51 KB\)](#)

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi to`g`risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta`lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini os

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son qarorini bajarish maqsadida **Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:**

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi "O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi to`g`risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta`lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"gi 929-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) Quyidagilar:

O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi to`g`risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta`lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining ustavi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligining Nizomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar va tuman hokimlari, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning ijrosi ta`minlanishini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari M.Jumanov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)